

20.08.2023.

4

Dam olish sahifa

Boks bellashuvlari

PAXTAKORLIK LAR G'ALABASI

2023 yil "Insonga e'tibor va sifatlita'llim yili" hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 32 yilligiga bag'lishlab boks bo'yicha 2006, 2007, 2008, 2009, 2010-yillarda tug'ilgan o'smirlar va kichik o'smirlar o'rtaida Paxtakor tuman "Hokim sovrini" uchun o'tkazilgan Respublika ochiq turniri bellashuvlari muvaffaqiyatli yakunlandi.

2023 yilning 15-18 avgust kunlari tuman hokimligi, tuman sport maktabi hamda viloyat boks Federatsiyasi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi "Sog'lon turmush tarzini keng tatbid elish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6099-soni Farmoni hamda 2021 yil 5 noyabrdagi "Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5279-soni qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan Respublikasi ochiq turnirida Toshkent shahri, shuningdek, Toshkent, Samarcand, Buxoro, Navoiy, Andijon viloyatlari hamda viloyatimizdagi

mavjud tumanlardan tashrif buyurgan 250 nafardan ziyod charm qo'lqop ustalari 31 ta vazn toifasida o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazdilar.

Qiziqarli bahs va munozalarga boy tarzda yakunlangan musobaqada umumjamoa hisobida 1-o'rinni Paxtakor tumani, 2-o'rinni



ni Toshkent shahri va 3-o'rinni Toshkent viloyati sportchilari qo'lga kiritishdi.

Musobaqa g'oliblari tashkiliy qo'mita tomonidan diplom, medal hamda estalik sovg'alarli bilan taqdirlanishdi.

R. QARSHIBOYEV,
tuman Sport maktabining
direktori.